"O'zbekiston–2030" strategiyasida jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko'rsatkich hamda 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi nazarda tutilgan. Mazkur ko'rsatkichlar strategiyaning keng qamrovli ekanligini va ijtimoiy himoya tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarning dolzarbligini namoyon etadi. Strategiyaning birinchi ustuvor yo'nalishi — "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish" — ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati va ma'naviyat sohalariga oid 44 ta maqsad, 156 ta amaliy chora-tadbir hamda 70 ta vazifani qamrab oladi. Ushbu yondashuv davlat boshqaruvi tizimida inson manfaatlarini ustuvor yo'nalish sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya sohasi strategiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, unda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining barcha qatlamlarini qamrab olish, ijtimoiy xizmatlarni kompleks tashkil etish hamda respublikaning barcha hududlarida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan. Mazkur yondashuv ijtimoiy xizmatlarning universalligi, barqarorligi va ochiqligini ta'minlashga qaratilgan. Strategiyaning asosiy maqsadi fuqarolarning nafaqat minimal ehtiyojlarini qondirish, balki ularning sog'lom, xavfsiz va munosib turmush kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini shakllantirish, ular uchun qulay va moslashtirilgan muhit yaratish hamda zamonaviy protez-ortopediya vositalari bilan ta'minlash darajasini 100 foizga yetkazish strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining aholining alohida ehtiyojga ega qatlamlariga nisbatan mas'uliyatini va ijtimoiy adolat tamoyillariga sodiqligini ifodalaydi.

Yoshlarni zamonaviy kasblar va xorijiy tillarga o'qitish tizimini rivojlantirish, har bir hududda "Kreativ park"larni tashkil etish hamda yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoshlar ijtimoiy himoyasining kompleks yondashuv asosida amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Strategiyada ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha davlat siyosatini izchil davom ettirish belgilangan. Bu jarayon ijtimoiy himoya tizimining qamrovini kengaytirish va aholining turli ehtiyojlariga moslashuvchan tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, strategiyada 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha hududlarda "Mahalla byudjeti" tizimini bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutilgan. Mazkur tizim mahalliy darajadagi moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini joylarda hal etish hamda jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy himoya tizimida desentralizatsiya tamoyillarining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va aholining real farovonligini ta'minlash "O'zbekiston–2030" strategiyasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda strategiyada nazarda tutilgan ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari, uning asosiy maqsadlari, institutsional mexanizmlari, moliyaviy asoslari hamda amaliy ijrosi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari hamda uni takomillashtirish masalalari bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimining an'anaviy "ijtimoiy yordam" modelidan "ijtimoiy rivojlanish" tamoyiliga bosqichma-bosqich o'tishi, xizmatlarning mahalla darajasida tashkil etilishi hamda professional ijtimoiy ish metodologiyasining joriy etilishi yuzasidan yangi ilmiy yondashuvlar shakllanmoqda. Mazkur yondashuvlar aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyatga integratsiyasini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xususan, xorijiy olimlardan Michael Sherraden, Guy Standing, Mark Doel, Lena Dominelli, Steven Shardlow, Theda Skocpol, Elinor Ostrom, James Midgley, David Piachaud hamda Richard Titmuss o'z ilmiy asarlarida inson kapitalini rivojlantirish orqali ijtimoiy himoyani ta'minlash, professional ijtimoiy ish metodologiyasi, inklyuziv ijtimoiy siyosat hamda jamoaviy resurslarni boshqarishning samarali mexanizmlarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning ilmiy qarashlari zamonaviy ijtimoiy himoya tizimining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi[1].

O'zbekiston ilmiy maktabida ham mazkur strategik yo'nalish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, N. Zokirova, A. Vaxabov, D. Rahmonova, X. Abduramanov, B. Alimov, G. Axmedova, S. Xodjayev, M. Sharapova, Sh. Murtazayeva, T. Ahmedov hamda B. Berdiyarov tomonidan ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va institutsional asoslari keng tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, "Ijtimoiy reyestr" tizimining shaffofligini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasiga tushirish hamda aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari atroflicha yoritilgan[2].

Mazkur olimlarning ilmiy qarashlarida O'zbekiston–2030 strategiyasining ustuvor vazifalari, xususan, ijtimoiy himoya tizimini inson qadrini ulug'lash tamoyili asosida isloh qilish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv muhit yaratish hamda ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini kengaytirish kabi dolzarb masalalar nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy boshqaruv tizimlarining rolini oshirish muhim omillar sifatida baholanmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

"O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda tizimning rivojlanish istiqbollari, moliyaviy ta'minoti, aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ularning samaradorligini baholash maqsadida kompleks ilmiy-amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida tahlil va sintez metodlari qo'llanildi. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasida ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish yo'llariga oid ilmiy manbalar, davlat siyosati hujjatlari, "O'zbekiston–2030" strategiyasining rasmiy matnlari hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari chuqur o'rganildi. Tahlil jarayonida strategiyada belgilangan 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir va 190 ta vazifa alohida komponentlarga ajratilib, ijtimoiy himoyaning turli yo'nalishlari, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar ijtimoiy himoyasi, mahalliy darajadagi ijtimoiy xizmatlar hamda moliyaviy ta'minot mexanizmlari sintez asosida yagona tizim sifatida baholandi.

1 Sherraden M. Assets and the Poor: A New American Welfare Policy. – New York: M.E. Sharpe, 1991. – 332 b, https://www.researchgate.net/publication/235361250_Assets_and_the_Poor_A_New_American_Welfare_Policy. Standing G. The Precariat: The New Dangerous Class. – London: Bloomsbury Academic, 2011. – 198 b, https://www.bloomsbury.com/uk/precariat-9781848138858/. Midgley J. Social Development: The Developmental Perspective in Social Welfare. – London: SAGE Publications, 1995. – 224 b, https://doi.org/10.4135/9781446221792. Doel M., Shardlow S. Modern Social Work Practice. – London: Routledge, 2005.224b,https://www.routledge.com/Modern-Social-Work-Practice-Teaching-and-Learning-in-Practice-Settings/Doel-Shardlow/p/book/9781857424560

2 Abduramanov X.X. Aholini ijtimoiy himoya qilish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 240 b.Vaxabov A.V. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2018. – 320 b.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, https://lex.uz/docs/6600413.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-son Farmoni, https://lex.uz/docs/6479155

Induksiya va deduksiya metodlari strategiyaning amaliy ijrosiga oid statistik ma'lumotlar asosida umumiy ilmiy xulosalar chiqarishda qo'llanildi. Induktiv yondashuv yordamida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hajmi, ijtimoiy nafaqalar miqdori, aholi daromadlari va kambag'allik darajasi dinamikasiga oid ma'lumotlar umumlashtirildi. Deduktiv metod esa davlat ijtimoiy siyosatining nazariy asoslari, ijtimoiy himoya tizimining xalqaro standartlarga mosligi hamda uning institutsional barqarorligini tahlil qilish imkonini berdi.

Shuningdek, "O'zbekiston–2030" strategiyasida nazarda tutilgan ijtimoiy himoya mexanizmlari rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, Skandinaviya mamlakatlaridagi inklyuziv ijtimoiy himoya tizimi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi manzilli yordam dasturlarining samaradorligi hamda Markaziy Osiyo davlatlarida qo'llanilayotgan yondashuvlar o'rganildi. Ushbu qiyosiy tahlil O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimining milliy xususiyatlarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida statistik ma'lumotlarni guruhlash, tizimlashtirish va iqtisodiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Bu orqali ijtimoiy himoya tizimining amaldagi holati, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash darajasi kompleks baholandi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot mavzusini har tomonlama ilmiy asosda o'rganish, strategiyaning ijtimoiy himoya tizimidagi ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda uning amaliy samaradorligini baholash imkonini berdi.

Amaliy holatni o'rganishda kuzatish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar, strategiya ijrosi bo'yicha yillik hisobotlar, davlat dasturlari va ijtimoiy himoyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar batafsil o'rganildi. Mazkur ma'lumotlar asosida amaldagi ijtimoiy himoya tizimining ustun va takomillashtirishni talab qiluvchi jihatlari aniqlashtirildi.

Modellashtirish metodi orqali "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasidagi ijtimoiy himoya tizimining tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu model ijtimoiy xizmatlarning universal, manzilli va ixtisoslashtirilgan shakllarini, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini, moliyaviy ta'minot asoslarini hamda ijro etuvchi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni qamrab oldi. Strukturaviy tahlil yordamida strategiyaning asosiy yo'nalishlari va ularning funksional aloqalari yoritildi.

Tadqiqot jarayonida strategiyaga oid normativ-huquqiy baza ham chuqur tahlil qilindi. Qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari hamda idoraviy hujjatlar matn tahlili asosida o'rganilib, strategiyaning ijro mexanizmlari va moliyaviy ta'minot yo'llari aniqlashtirildi. Prognozlash metodidan foydalanish orqali 2030-yilgacha ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish istiqbollari hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati baholandi. Shu asosda optimistik, realistik va konservativ rivojlanish ssenariylari ishlab chiqildi.

Strategiyada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning dinamikasi, ijtimoiy himoya tizimidagi moliyaviy o'zgarishlar hamda aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash ko'lami statistik va grafik usullar yordamida tahlil qilindi. Raqamli tahlil va vizual tasvirlash usullari tadqiqot natijalarining yanada aniq, tushunarli va ilmiy asoslangan bo'lishini ta'minladi.

Ekspert baholash metodidan strategiyaning ijro mexanizmlari va maqsadli ko'rsatkichlarga erishish darajasini aniqlashda foydalanildi. Ijtimoiy siyosat sohasi mutaxassislari, davlat organlari vakillari hamda ijtimoiy tashkilotlar rahbarlari bilan suhbat va konsultatsiyalar o'tkazildi. Ekspert fikrlari strategiyani amalga oshirish jarayonida uchrayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Germenevtik yondashuv strategiyada qo'llanilgan asosiy tushunchalar, jumladan, "barqarorlik", "inklyuzivlik" va "inson markazli rivojlanish" kabi konsepsiyalarning o'zbek ilmiy hamda ijtimoiy muhitidagi mazmunini talqin qilishda qo'llanildi. Ushbu yondashuv strategiyaning milliy xususiyatlari bilan umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ochib berishga imkon yaratdi.

Mazkur metodlarning o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi, ya'ni nazariy tahlil, amaliy kuzatuv, xalqaro tajriba bilan taqqoslash hamda institutsional yondashuvlarning integratsiyasi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi, amaliy ahamiyati va ishonchliligini ta'minladi. Metodologik yondashuvning kompleks xarakteri "O'zbekiston–2030" strategiyasida ijtimoiy himoya tizimining murakkab va dinamik tabiatini har tomonlama yoritishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga oid mahalliy va xalqaro ilmiy manbalar, davlat dasturlari, tahliliy hisobotlar hamda xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki, BMT va UNICEF ma'lumotlari chuqur o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy himoya, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli Farmoni[3] bilan tasdiqlangan yangilangan "O'zbekiston–2030" strategiyasi mamlakat ijtimoiy rivojlanishining o'rta muddatli asoslarini belgilovchi muhim siyosiy-huquqiy hujjat sifatida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Strategiya beshta ustuvor yo'nalish va yuzta maqsadni o'z ichiga olgan bo'lib, uning birinchi ustuvor yo'nalishi har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoit yaratishga bag'ishlangan. Mazkur yo'nalish doirasidagi ijtimoiy himoyaga oid maqsadlar davlat siyosatining inson qadrini ulug'lash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashdagi ustuvor vazifalarini aks ettiradi.

Strategiyada ijtimoiy himoya tizimini keng qamrovli va manzilli yondashuv asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, ehtiyojmand aholining barchasini ijtimoiy himoya tizimi bilan to'liq qamrab olish, ijtimoiy xizmatlarni kompleks tashkil etish maqsadida respublikaning barcha tuman va shaharlarida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda kambag'allikka tushish xavfi mavjud bo'lgan 4,5 million aholining daromadlarini oshirish vazifalari belgilangan[4].

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlash darajasini 100 foizga yetkazish, 2026-yilga qadar kambag'allik darajasini 2022-yilga nisbatan ikki barobarga kamaytirish hamda 2030-yilgacha uni izchil qisqartirish maqsadlari aniq o'lchanadigan ko'rsatkichlar sifatida belgilangan.

Mazkur yondashuvning ilmiy-nazariy ahamiyati shundaki, u ijtimoiy himoyaning faqat ayrim toifalarga yo'naltirilgan tor tizimidan umumiy qamrovga ega milliy tizimga bosqichma-bosqich o'tishni ifodalaydi. Ushbu o'zgarishlarning amaliy natijalari sifatida 2023–2025-yillar davomida kambag'allik darajasining 11 foizdan 6,8 foizga, ishsizlik darajasining esa 6,8 foizdan 4,9 foizga kamaygani kuzatilgan. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulot hajmi 103 milliard AQSH dollaridan 145 milliard AQSH dollariga, eksport hajmi esa 25 milliard AQSH dollaridan 33,4 milliard AQSH dollariga yetgani qayd etilgan[5].

Ushbu natijalar 2026–2030-yillarda yanada samarali va barqaror ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti hamda BMT tomonidan ilgari surilgan "hech kimni chetda qoldirmaslik" tamoyili ham strategiyaning asosiy g'oyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, yangilangan O'zbekiston–2030 strategiyasida barcha maqsad va ko'rsatkichlarning foiz, ulush, daraja, hajm, nisbat, ball hamda indeks ko'rinishidagi aniq o'lchanadigan mezonlar asosida belgilanganligi davlat boshqaruvida dalillarga asoslangan yondashuvning kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Umumiy va mavhum xarakterdagi vazifalarning qisqartirilishi strategik boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Statistik va analitik ko'rsatkichlardan foydalanish esa davlat siyosati natijalarini obyektiv baholash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Strategiyada nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini yaratish, ular uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish hamda professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish vazifalari ham alohida o'rin egallaydi. Nogironligi bo'lgan ehtiyojmand shaxslarni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya vositalari bilan 100 foiz ta'minlash ushbu yo'nalishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlaridan biri sifatida belgilangan[6].

Mazkur yondashuv nogironlikka nisbatan tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tishni anglatadi. Tibbiy yondashuv nogironlikni asosan shaxsning jismoniy yoki ruhiy holati bilan bog'lasa, ijtimoiy yondashuv ushbu masalani jamiyat infratuzilmasi, xizmatlar va muhitning moslashuvchanligi bilan izohlaydi. Shu sababli strategiyada protez-ortopediya xizmatlarini voucher tizimi asosida bosqichma-bosqich tashkil etish hamda fuqarolarni mavjud imtiyozlar haqida proaktiv tarzda xabardor qilish mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun muqobil noinstitutsional parvarish shakllarini joriy etish ham strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "O'zbekiston–2030" strategiyasida ushbu tizimni to'liq joriy etish hamda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim qamrovini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Mazkur yondashuv xalqaro ijtimoiy ish amaliyotida keng qo'llanilayotgan oilaviy parvarish modeliga mos keladi. Ilmiy tadqiqotlar bolalarning oilaviy muhitda tarbiyalanishi ularning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi uchun yanada samarali ekanini ko'rsatmoqda. Shu bois strategiyada bolalarni institutsional muassasalarga joylashtirishdan ko'ra, ularni oilaviy muhitda qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Strategiyaning ta'lim sohasiga oid ko'rsatkichlari ham ushbu yo'nalish bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, 2030-yilgacha umumta'lim maktablari va akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim bilan qamrovini 50 foizga yetkazish, maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish hamda maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy

3 https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769
4 https://lex.uz/docs/-8050769
5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi, 2025
6 https://lex.uz/docs/-8050769

kompyuter sinflari bilan jihozlash rejalashtirilgan. Ushbu chora-tadbirlar inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy teng imkoniyatlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

Strategiyada ijtimoiy zaif qatlamlarga kompleks xizmatlar ko'rsatish hamda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, xotin-qizlarni kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga jalb etish, rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushini 30 foizdan oshirish hamda oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan vazifalar belgilangan[7].

Strategiyada rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlar ulushini oshirish bo'yicha aniq ko'rsatkichlarning belgilanishi ijtimoiy himoyaning nafaqat moddiy yordam, balki huquqiy, institutsional va vakillik jihatlarini ham qamrab olayotganini anglatadi. Bu esa davlat siyosatining an'anaviy "yordam berish" modelidan "imkoniyat yaratish" modeliga bosqichma-bosqich o'tayotganini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. "O'zbekiston-2030" strategiyasining ijtimoiy himoya tizimiga oid maqsadlari tuzilmasi[8].

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-8050769 (murojaat sanasi: 11.05.2026).

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining ijtimoiy himoya yo‘nalishidagi eng muhim maqsadli ko‘rsatkichlaridan biri kambag‘allik darajasini bosqichma-bosqich qisqartirish hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda sezilarli natijalarga erishilgani kuzatilmoqda. Yillar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2021-yilda kambag‘allik darajasi 17 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 8,9 foizgacha pasaygan, 2025-yilning birinchi yarmi yakunlariga ko‘ra esa 6,8 foizgacha kamaygan.

Bir necha yil avval aholi daromadlarining muayyan qismi kambag‘allik chegarasidan past darajada shakllangan bo‘lsa, keyingi davr mobaynida 3,5 million fuqaro uchun daromad olish imkoniyatlari yaratilgani natijasida kambag‘allik darajasini sezilarli qisqartirishga erishilgan. Shuningdek, 2024-yilning qolgan qismida yana 500 ming, 2025-yilda esa 1 million nafar aholini kambag‘allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Mazkur natijalar ijtimoiy himoya tizimining manzilli va kompleks yondashuv asosida takomillashib borayotganini ko‘rsatadi. Kambag‘allikni qisqartirish faqat iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida emas, balki aholining turmush sifati, bandligi, ijtimoiy barqarorligi va inson kapitalini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq muhim ijtimoiy mezon sifatida ham baholanadi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda kambag‘allik va ishsizlik darajasining 2021–2025-yillardagi o‘zgarish dinamikasi(%)[9].

| Yil | Kambag‘allik darajasi | Ishsizlik darajasi |
|---|---|---|
| 2021 | 17 | 6.8 |
| 2023 | 11 | 6.8 |
| 2024 | 8.9 | 5.1 |
| 2025(yil o‘rtasi) | 6.6-6.8 | 4.9 |

Mazkur jadval “O‘zbekiston–2030” strategiyasining ijtimoiy himoya yo‘nalishi bo‘yicha erishilgan natijalari izchil va barqaror xususiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Xususan, so‘nggi to‘rt yil davomida kambag‘allik darajasi 17 foizdan 6,6 foizgacha, ya’ni qariyb uch baravarga qisqartirilgan. Ushbu natijalar O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samaradorligini aniq statistik ko‘rsatkichlar asosida tasdiqlaydi.

Ijtimoiy himoya yagona reyestri doirasida 1,8 million oilaning ijtimoiy holati baholanib, ularning 739 ming nafari, jumladan kam ta’minlangan hamda kambag‘allik xavfi mavjud oilalar reyestrga kiritilgan va ularga nafaqa hamda turli moddiy yordam turlari tayinlangan.

Ijtimoiy reyestr tizimining joriy etilishi nafaqat qamrov ko‘lamini kengaytirdi, balki ijtimoiy yordamning manzilliligini ham sezilarli darajada kuchaytirdi. Xususan, kam ta’minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to‘lanadigan nafaqalar qamrovi kengaytirilib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi. Shuningdek, to‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha uzaytirildi hamda nafaqa miqdori o‘rtacha 1,5 baravarga ko‘paytirildi.

Bundan tashqari, ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdori 3,2 baravarga oshirildi hamda aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi mexanizm joriy etildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

“O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda kambag‘allikni qisqartirish, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish borasida muhim natijalarga erishilgan. Ayniqsa, Ijtimoiy reyestr tizimining joriy etilishi, manzilli yordam mexanizmlarining kuchaytirilishi va raqamli boshqaruv tizimlarining qo‘llanilishi ijtimoiy himoya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimini yanada rivojlantirish uchun ayrim masalalarga alohida e’tibor qaratish zarur. Jumladan, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrov darajasidagi tafovutlarni kamaytirish, yordamning haqiqiy ehtiyojmand qatlamlarga yetib borishini kuchaytirish hamda ijtimoiy dasturlar monitoringini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblandi:

Birinchidan, hududlar kesimida ijtimoiy xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini tenglashtirish maqsadida raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda mahalliy ijtimoiy xizmat markazlari faoliyatini kuchaytirish zarur.

9 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi, 2025; Spot.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ikkinchidan, ijtimoiy yordam va nafaqalarni tayinlashda ma'lumotlar bazalarining integratsiyasini yanada takomillashtirish orqali yordamning manzilliligini oshirish va ehtiyojmand fuqarolarni tezkor aniqlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar, yoshlar va kam ta'minlangan oilalar uchun kasbiy tayyorgarlik, tadbirkorlik va bandlik dasturlarini kengaytirish orqali ijtimoiy himoyaning passiv shaklidan faol qo'llab-quvvatlash modeliga o'tishni jadallashtirish lozim.

To'rtinchidan, ijtimoiy dasturlar samaradorligini baholashda zamonaviy monitoring va indikator tizimlarini joriy etish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish ijtimoiy siyosatning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

"O'zbekiston–2030" strategiyasi ijtimoiy himoyani faqat moddiy yordam ko'rsatish tizimi sifatida emas, balki inson kapitalini rivojlantirish, teng imkoniyatlar yaratish va aholi farovonligini oshirishning muhim omili sifatida talqin etadi. Strategiyada belgilangan maqsad va vazifalarning izchil amalga oshirilishi mamlakatda kuchli, barqaror va adolatli ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**


1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.12.2024-yildagi "Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda "ijtimoiy karta" tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 897-sonli qarori, https://lex.uz/uz/docs/-7283178
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli Farmoni, https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769
3. G'aniyev X.M.. Aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikni kamaytirishda xorij tajribasi. — Toshkent: Fazilat Orgtex Servis, 2022. — 184 b.
4. Bekmurodova S.. Mintaqaning moliyaviy barqarorligi muammosi va ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlari // AGRO ILM: O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali ilmiy-ilovasi. — 2023. — 3-son. — 12–18-b.
5. Sulaymonova N.. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali. — 2021. — 3-son. — 45–52-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi. Strategik rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga oid rasmiy tahliliy materiallar va hisobotlar.

# YASHIL

**IQTISODIYOT&TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz